

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
130 sahifa, oktyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
PECULIARITIES OF THE IRRIGATION WATER DELIVERY PAYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	41
Muminov Sherzod Kholmiraevich	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.....	55
Vohobov Hikmatillo Ma‘mirjon o‘g‘li	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI.....	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	



KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA'MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG'URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI.....	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI.....	123
Nasimdjanov Yunusjon Zoxidovich	



RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI

NasimdjanoV Yunusjon Zoxidovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

PhD, mustaqil tadqiqotchisi

Orcid: 0009-0009-3622-2573

Dilkabutilka@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada resurslarni soliqqa tortishga oid ilmiy tadqiqotlarning nazariy asoslari va ularning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda soliq nazariyasi doirasida resurs soliqlari tushunchasining shakllanishi, ularning iqtisodiy mohiyati hamda davlat byudjetining barqaror daromad manbai sifatidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, klassik, neoklassik va institutsional iqtisodiy maktablar nuqtai nazaridan resurs soliqlarining nazariy qarashlari o'rganilib, ularning tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi roli ilmiy tahlil qilingan. Xorijiy olimlar, jumladan, A. Smit, D. Rikardo, A. Pigou, J. Stiglitz kabi iqtisodchilarning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar soliq resurslari nazariyasining shakllanishida asosiy o'rinni egallaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, resurs soliqlari tizimining takomillashuvi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki ekologik javobgarlikni kuchaytirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ham muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: resurs soliqlari, soliqqa tortish nazariyasi, tabiiy resurslar, fiskal siyosat, iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik, soliq tushumlari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract: This scientific article analyzes the theoretical foundations of scientific research on resource taxation and the stages of their development. The study highlights the formation of the concept of resource taxes within the framework of tax theory, their economic essence and their importance as a source of sustainable income for the state budget. Also, the theoretical views of resource taxes from the perspective of classical, neoclassical and institutional economic schools are studied, and their role in the rational use of natural resources and increasing economic efficiency is scientifically analyzed. The ideas put forward in the works of foreign scientists, including economists such as A. Smith, D. Ricardo, A. Pigou, J. Stiglitz, play a key role in the formation of the theory of tax resources. According to the results of the study, the improvement of the resource tax system not only ensures financial stability, but is also an important factor in strengthening environmental responsibility and achieving the goals of sustainable development.

Keywords: resource taxes, taxation theory, natural resources, fiscal policy, economic efficiency, environmental sustainability, tax revenues, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Аннотация: В данной научной статье анализируются теоретические основы научных исследований по налогообложению ресурсов и этапы их развития. В исследовании освещается формирование концепции налогов на ресурсы в рамках налоговой теории, их экономическая сущность и значение как источника устойчивого дохода государственного бюджета. Также изучаются теоретические взгляды на налоги на ресурсы с позиции классической, неоклассической и институциональной экономических школ, а также проводится научный анализ их роли в рациональном использовании природных ресурсов и повышении экономической эффективности. Идеи, выдвинутые в трудах зарубежных ученых, в том числе таких экономистов, как А. Смит, Д. Рикардо, А. Пигу, Дж. Стиглиц, играют ключевую роль в становлении теории налоговых ресурсов. По результатам исследования, совершенствование системы налогов на ресурсы не только обеспечивает финансовую стабильность, но и является важным фактором усиления экологической ответственности и достижения целей устойчивого развития.

Ключевые слова: ресурсные налоги, теория налогообложения, природные ресурсы, фискальная политика, экономическая эффективность, экологическая устойчивость, налоговые поступления, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

KIRISH

Resurslarni soliqqa tortish masalasi zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki tabiiy, moliyaviy va inson resurslaridan oqilona foydalanish davlatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois resurs soliqlari tizimini nazariy jihatdan chuqur o'rganish, uning iqtisodiy mohiyatini tahlil qilish hamda ilmiy qarashlarning shakllanish bosqichlarini o'rganish dolzarb ilmiy vazifa sanaladi. Bugungi kunda resurs soliqlarining nazariy tahlili ularning fiskal va ekologik funksiyalarini uyg'unlashtirishga, ya'ni davlat byudjetining barqarorligini ta'minlash bilan birga, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish zarurligiga qaratilgan. Mazkur



tadqiqotda resurslarni soliqqa tortishga oid ilmiy nazariy qarashlar, ularning shakllanish bosqichlari, iqtisodiy maktablar yondashuvlari hamda O'zbekiston sharoitida ushbu nazariy asoslarni qo'llash imkoniyatlari tahlil etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek olimlardan G'.A.Safarov "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini soliqlar vositasida rag'batlantirish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida korxonalar va tashkilotlar tomonidan tabiiy resurslar bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan kam chiqitli investitsiyalar uchun rag'batlantiruvchi imtiyozlarni qo'llash, tabiiy resurs soliqlarini ixchamlashtirilgan soliqqa tortish tizimida ham qo'llashni ilmiy asoslagan, noqishloq xo'jalik korxonalaridan olinayotgan yer solig'ini hisoblab chiqish va undirishda ular foydalanayotgan yerning kadastr qiymatidan undirish mexanizmini joriy qilish masalasini taklif qilgan, yer osti boyliklaridan olinadigan soliqlarni hisoblashda hisobga olish usulini taklif etgan hamda bu soliqni undirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqqan[1].

D.Qurbanov esa o'zining dissertatsion va monografik tadqiqotlari asnosida O'zbekistonda "alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqaruvchi korxonalarda suv resurslaridan tejamli va samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida ularga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etish taklifini ishlab chiqqan, shuningdek, avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashgan korxonalar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni belgilashni asoslagan, suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashda tadbirkorlik sub'ektlarining yillik yalpi tushumi 1 mlrd. so'mdan oshgan taqdirda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari tarkibiga kiritilishi taklifi" ni ishlab chiqqan[2].

A.Toshqulov qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari soliq to'lovchilarning soliq to'lovchi sifatida maqomini aniqlash, umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish, qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha pasaytirilgan stavkalarni qo'llash, yangi barpo etiladigan bog', tokzor va tutzorlar egallagan yerlarni soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalarining metodologik yo'nalishlarini ishlab chiqqan[3].

Iqtisodchi S. Kuznesov tadbirkorlik sub'ektlarini moliyaviy qo'llab quvvatlash masalalarini nazariy jihatdan tizimlashtirib, jarayonli paradigma sifatida uning bir qancha muhim ilmiy iqtisodiy tadqiqot qoidalari yoritib bergan. Xususan, "Moliyaviy qo'llab quvvatlash" konsepsiyasi pul mablag'lari yoki moddiy aktivlarning kombinatsiyasi sifatida taqdim etilishini e'tirof etadi[4].

Amerikalik iqtisodchilar Zvi Bodi va Robert Mertonlar moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimiga aniqlik kiritib, moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi sifatida ma'lum ob'ektlarga nisbatan qabul qilinadigan tadbirlarni amalga oshirish harakatlari majmuasi va ketma ketligi ekanligini ilgari surishgan. Ular moliyaviy ta'minot bilan bog'liq qo'llab quvvatlash tizimi moliyaviy kategoriya sifatida moliyaning iqtisodiy mohiyati va funksiyalariga asoslanishi lozimligini e'tirof etishadi[5].

Iqtisodchi S. V. Barulin, moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimini ikki tomonlama jarayon sifatida ko'rib o'tadi. Uning fikricha moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimi, alohida iqtisodiy agentlarni moliyaviy ta'minot tizimini ma'lum noaniqliklar sharoitida optimal ta'minlashni muvofiqlashtirish hisoblanadi[6].

Iqtisodchi I.V. Ziyatkovskiyning fikricha, moliyaviy qo'llab quvvatlash yahlit tizim sifatida jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini barqaror rivojlanishini moliyaviy ta'minlash uchun qulay muhit yaratadigan moliyalashtirish manbalari va shakllari tizimidir[7].

T.V. Sokolskaya qishloq xo'jaligini moliyaviy qo'llab quvvatlash tizimiga aniqlik kiritib, qishloq xo'jaligi tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy va aylanma, xususiy va qarz mablag'lar bilan ta'minlash, yetarli hajmdagi mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash uchun qulay moliyaviy shart sharoit yaratish tizimi ekanligini ta'kidlaydi[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Resurslarni soliqqa tortish masalasi soliq tizimining dastlabki shakllanishi bilan parallel ravishda amal qilib kelmoqda deb aytgach, ilmiy-nazariy jihatdan xato bo'lmaydi, sababi resurslarning eng muhim tarkibi bo'lgan yer resurslari qadimgi davlatchilikning boshidanoq davlat g'aznasining asosiy moliyaviy manbasi sifatida qaralgan va undan soliq turli xil miqdorlarda va usullarda undirib kelingan.

Bu jarayonni tarixiy evolyutsion shakllanishini ayrim manabalar asosida isbotlashga harakat qilamiz. Masalan, "eramizdan avvalgi ming yillikning ikkinchi yarmida qadimgi Hindiston davlatida soliqlarni undirish borasidagi davlat ishlari maxsus "Manu qonunlari"da aks ettirib qo'yilgan. Yerlarning oliy tabaqali kohlarga,



oddiy dehqonlarga tegishliligi va joylashgan joyiga qarab soliqlar tabaqalashtirilgan tartibda undirilgan”¹. Eramizdan avvaligi 1280-1270-yillarda Xitoyda knyazlik qilgan Yuyning soliq islohotlari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Ya'ni, yerlar ming birlik (balki gektar bo'lgan) o'lchov asosida 9 ta ma'muriy hududlarga bo'lingan holda har bir 100 birlik yerlardan olingan hosillarga soliqlar tabaqalashtirilgan holda belgilangan. Eramizdan avvalgi IV asrda Xitoy markazlashgan imperiyasida esa yer solig'ini undirish bilan dastlabki yozuv shaklidagi rasmiy qonun chiqarilib, butun mamlakatga tarqatiladi va yer solig'ini undirishda ana shu qonunga asoslangan. Bu qonunga ko'ra yerlarning unumdorligi va soliq to'lovchining maqomiga ko'ra 2/3 qismgacha hosildan soliq undirilgan.

Xitoylik olim «Guan-Szi» (m.a. IV a.) o'z asarida ham xo'jalikni davlat tomonidan tartibga solish va usullari haqida fikr bildirib, legistlardan farqli ravishda davlat tovar-pul munosabatlarini cheklamasligi, davlat xo'jaligini barqaror saqlash uchun tovarlar baholarini ushlab turish lozimligi, “Yerni boshqarish” uchun davlat yerning tabiiy xususiyatlarini yaxshi bilishi kerakligi, yer maydonlari nisbatan tekis taqsimlanishi zarurligi, dehqonlarni ish qizigan davrda boshqa yumushlarga jalb etmaslik, soliq tizimi sharoitiga qarab (yer unumiga bog'liq ravishda) bo'lishi taklif etilgan. Uning fikricha davlat dehqonlardan soliq undirishda avvalo yerning kadastrini tuzish lozim, ana shundagina adolatli soliq undiriladi degan g'oyalarni ilgari suradi.

Feodal xo'jalik davrida Osiyoda soliqlarning rivojlanishi Usmonlik imperiyasida ham ancha shakllantirildi. XV asrning oxiriga qadar Usmonlik imperiyasida yerlar davlatga qarashli bo'lgan. Yerlarni yagona taqsimlovchi shaxs sultonning o'zi bo'lgan asosiy yerlardan undirilgan (ayniqsa bosib olingan Yevropa davlatlaridagi yerlardan) soliqlar shaxsan sultonning g'aznasiga jalb qilingan. Usmonlik imperiyasining amal qilgan vaqtlarida soliqlarni undirish tartiblari ham o'zgarib bordi. Qishloq xo'jaligidan soliqlarni undirishda feodal rentani undirishning uchta shakli rivoj topdi. Bular ishlab berish, mahsulot hamda pul shaklida renta undirish edi. Bularning ichida mahsuot orqali renta solig'ini to'lash keng rivojlandi. Dehqonlar olingan hosilning o'ndan bir qismi miqdorida (bacha hosil va chorva mollarning ham, hatto yem-xashaklardan) soliq to'lash lozim bo'lgan. Bundan tashqari aholi yer egalariiga harbiy maqsadlar uchun alohida “avoriz” deb nomlanuvchi soliqlarni ham to'lagan.

Formatsiyalashuvning feodalizm shaklining paydo bo'lishi va uning rivojlanib borishi yer egaligining feodal shakliga o'tishi bilan yer solig'i Yevropa davlatlari jumladan, Fransiya, Germaniya, Angliya, Italiya va boshqa shu kabi davlatlarda ham asosiy soliq turlaridan biri bo'lib keldi. Bu davrlarda yer solig'ini undirish bilan bog'liq soliq nazariyalari ham keng rivojlanib bordi. XVIII asrning o'rtalarida Fransiyada paydo bo'lgan va iqtisodiy taraqqiyot negizi tabiat, asosan yer deb hisoblagan fiziokratlar oqimi tarafdorlaridan F.Kene, O.Mirabo asosiy urg'uni yer solig'iga e'tibor bergan. Ularning fikricha yagona yer solig'ini joriy etish va undirish davlatning soliq siyosatining asosiy masalasi bo'lishi lozim.

Taraqqiyotning rivojlanib borishi yer osti boyliklarni soliqqa tortish mexanizmlarining vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Jamiyatda sanoatlashuvning ildiz ortishi, foyda olishni tadbirkorlar, jumladan, davlat ham yer qaridan foydalanishning umumiy tartiblarini e'lon qilish bilan birga ulardan foydalanish uchun majburiy to'lovlarni ham joriy qilish orqali, milliy boylikni asrashning moliyaviy uslublaridan foydalanish bilan bir qatorda davlat g'aznasini daromad bilan ta'minlashning bir vositasi sifatida ham yondashib kelinmoqda.

Juda ko'p manbalarda resurslarni soliqqa tortish deganda yer, suv, neft, gaz, yog'och va boshqalar kabi tabiiy resurslardan foydalanish asosida undiriladigan soliqqa tortish tizimi tushuniladi. Resurs soliqlari kompaniyalar va shaxslarni, resurslarni tejashga va ulardan samaraliroq foydalanishga undaydigan tartibga solish mexanizmi bo'lishi mumkin. Resurslarga soliqlar turli shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan, qazib olish solig'i, foydalanish uchun soliq, resurslarni eksport qilish yoki import qilish uchun soliq. Resurslarga soliq solish iqtisodiyot va atrof-muhitga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bir tomondan, bu innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishni va resurslardan yanada samarali foydalanishni rag'batlantirishi esa atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishi, boshqa tomondan, resurslarni soliqqa tortish ishlab chiqarish va iste'mol xarajatlarini oshirishi provardida esa bu iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Resurslarni soliqqa tortish haqida gap ketganda albatta ko'chmas mulk tushunchasidan foydalaniladi. Bu borada mahalliy olimlarimizdan ilmiy tadqiqotlar olib borgan dots. U.Tulakovning ko'chmas mulk haqidagi ta'rifini anchayin to'laroq deb hisoblash mumkin. Ya'ni, uning fikricha, “ko'chmas mulk deganda bir joydan boshqa joyga uning yaxlitligi va maqsadli vazifasiga zarar yetkazmasdan olib o'tib bo'lmaydigan mol-mulk tushuniladi. Uning xususiyatlaridan biri ko'chmas mulkning albatta yer bilan bog'liqligidir: u yer yuzasida (bino va inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar) yoki uning qariida (foydali qazilmalar, suv resurslari va hokazo) joylashadi. Yer uchastkalarining o'zi ham ko'chmas mulk obyektidir”².

1 Қаранг: Тарасов П. И. Очерк науки финансового права. Введение. Общая часть. Особенная часть. Ярославль, 1883. С. 34.

2 У.Тулаков. Кўчмас мулкни солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит (иқтисодиёт фанлари). Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун диссертация. 2021 йил. 13.б.

Ko'chmas mulk va ularning tarkibi, "ularni boylik va daromadlar manbai sifatida dastlabki ilmiy qarashlarni klassik iqtisodiyot vakillari tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Jumladan, Fransua Kene"³ (davlat g'aznasining asosiy moliyaviy manbai ko'chmas mulkni ijaraga berishdan oladigan daromadlardan iborat bo'lish lozim degan g'oyani ilgari surgan), Per Samyuel Dyupon de Nemur "(qishloq xo'jaligining sof mahsulotining asosi bo'lgan yerni soliqla tortish davlatning moliyaviy maqsadi bo'lishi kerak degan fikrni ilgari surgan), klassik siyosiy iqtisod maktabining asoschilaridan biri D.Rikardo"⁴ "(ko'chmas mulkni soliqla tortishda yerning foydaliligi, uning egasining yerdan olgan daromadi sifatida soliqla tortishga asoslanishligini ta'kidlagan). Uning izdoshlari bo'lgan A.Smit"⁵ "(ko'chmas mulkni soliqla tortishda ularning joylashgan joyi va nafilligiga asoslanish kerak degan g'oyani ilgari surgan), G.Jorj (yer uchastkalarini soliqla tortishda iqtisodiy renta sifatida uning qiymatidan kelib chiqib yagona soliqni joriy etish lozim deb hisoblagan), N.Turgenev"⁶ "(ko'chmas mulkni soliqla tortishda uyni ijaraga olinishiga qarab yondashish kerak degan taklifni beradi), A.Marshall"⁷ "(ko'chmas mulklarni soliqla tortishda og'ir to'lovlar soliq to'lovchilarini boshqa hududlarga ko'chib o'tishiga olib keladi, soliqlar qulay bo'lishi soliq to'lovchilarni investitsiyalarni jalb qilishga xizmat qilishi kerak degan nazariyani ilgari surgan), rus olimi I.Yanjul"⁸ (yerni, uyni soliqla tortishda ularning daromadligi va joylashuviga asoslanish lozim degan g'oyani ilgari surgan) kabi fikrlarni keltirish mumkin.

Ko'chmas mulk shaklidagi resurslarni soliqla tortishga oid keyingi tadqiqotlarni tahlil qiladigan bo'lsak, J.Yinger, A.Vagner, B.Gamilton, V.Fishel, V.Outs, G.Saymon, R.Netser, J.Zodrou, P.Mishkovskiy, D.Smirnova, E.Mixaseva, R.Margulis, E.Mixina, I.Drojina⁹ kabilarning asarlarida ham ko'chmas mulkni soliqla tortish bilan bog'liq mulohazalar bildirilganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston soliq tizimida ko'chmas mulk tarzidagi resurslarni soliqla tortishda dastlabki ilmiy tadqiqotlar sifatida, masalan mol-mulk solig'iga bag'ishlangan dotsent B.Umarov, professor A.Toshqulovning yer solig'iga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsion tadqiqotlarni keltirish mumkin. B.Umarov "Korxonalar mol-mulkini soliqla tortish mexanizmidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari" nomli nomzodlik dissertatsion tadqiqotida O'zbekistonda korxonalardan mol-mulk solig'ini undirish va uni hisoblash usullari hamda soliq bazasini aniqlash muammolarining yechimlariga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan bo'lsa, A.Toshqulov esa nomzodlik dissertatsiyasida "qishloq xo'jalik yerlaridan soliq undirish masalalarini tadqiq qilgan va 2020-yilda himoya qilgan "Qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiya ishida esa, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari soliq to'lovchilarning soliq to'lovchi sifatida maqomini aniqlash, umumbelgilangan tartibda soliqla tortish, qishloq xo'jaligi korxonalari iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish maqsadida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha pasaytirilgan stavkalarni qo'llash, yangi barpo etiladigan bog', tokzor va tutzorlar egallagan yerlarni soliqlar vositasida rag'batlantirish masalalarining metodologik yo'nalishlarini ishlab chiqqan"¹⁰.

Ko'chmas mulk soliqlari bilan bog'liq dastlabki ilmiy ishlar qatoriga T.Jo'rayevning "Soliq siyosatini takomillashtirish yo'lida" maqolasida resurs soliqlari bilan bog'liq yondashuvlarni ham keltirish mumkin. Ushbu olimning ta'kidlashicha, resurs soliqlari mohiyati jihatdan renta to'lovidir. "Resurs soliqlari o'ziga xos xususiyatlarga ega: o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra ular renta to'lovidir. Bu qayta tiklanmaydigan tabiiy, yer va suv zaxiralaridan foydalanganlik uchun o'ziga xos to'lov bo'lib, u xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining natijalari bilan bog'liq bo'lmaydi"³³.

3 Кенэ, Ф. Физиократы. Избранные экономические произведения / Ф.Кенэ, А.Р.Тюрго, П.С.Дюпон де Немур. – М.: Эксмо, 2008. – 1200 с.

4 Рикардо, Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Избранное / Д. Рикардо. – М.: Эксмо, 2007. – 960 с.

5 Смит, А. Исследование о природе и причинах богатства народов / А. Смит. – М.: Эксмо, 2007. – 960 с.

6 Тургенев, Н.И. Опыт теории налогов / Н.И. Тургенев. 1818.

7 Маршалл, А. «Принципы экономической науки. Т. III» / А. Маршалл. – М., Издательская группа «Прогресс», 1993. – 350 с.

8 Янжул, И.И. Основные начала финансовой науки: Учение о государственных доходах / И.И. Янжул. – М.: «Страут», 2002. – 555 с.

9 Fischel W.A. Zoning and Land Use Regulation / W.A. Fischel // Encyclopedia of Law and Economics. – Aldershot: Edward Elgar and the University of Ghent, 1998. – Vol. 2. – P. 403-442., Маргулис Р.Л. Совершенствование налогообложения недвижимого имущества физических лиц: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10 / Маргулис Роман Львович. – М., 2010. – 187 с., Смирнов, Д.А. Теория и методология имущественного налогообложения: дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.10 / Смирнов Денис Александрович. – М., 2010. – 392 с., Netzer, D. Economics of the property tax / D. Netzer. Washington: Blockings Inst. Simon, H. The Incidence of a Tax on Urban Real Property. Quarterly Journal of Economics, 398-421 p., Hamilton B.W. Zoning and property taxation in a system of local governments / B.W. Hamilton // Urban Studies. – 1975. – № 12. – P. 205-211., Mieszkowski P.M. The incidence of the local property tax: a re-evaluation / P.M. Mieszkowski // NBER. 1984. Working paper №1485. – 19 p., Harberger A.C. The Incidence of the Corporation Income Tax / A.C. Harberger // Journal of Political Economy. 1962. – Vol. 70. – №3. – P. 215-240., Михасева, Е.Н. Формирование и развитие системы налогообложения недвижимости в России: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10 / Михасева Елена Николаевна. – Волгоград, 2008. – 156 с., Дрожжина, И.А. Формирование системы налогообложения объектов недвижимости на основе дифференцированного подхода: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.10 / Дрожжина Ирина Алексеевна. – Орел, 2005. – 188 с.

10 А.Х.Тошқулов. "Қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодий фаолиятини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари". И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: 2021. –47 б.



Iqtisodchi olim Sh.Musalimov iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktorlik dissertatsiyasida mulkiy soliqlarning fiskal ahamiyatini tahlil qiladi va muallif ta'kidlaydiki, "o'z tarkibiga bino va inshootlar hamda ular joylashgan yer uchastkasini oluvchi ko'chmas mulk solig'ining bazasini aniqlashda yuridik shaxslar uchun yillik o'rtacha qoldiq qiymat usulidan voz kechish lozim va ko'chmas mulkning qiymatini bozor mexanizmlari asosida baholash tizimiga o'tish zarur"⁴³. Bu boradagi tadqiqotlarda iqtisodchi olim G'.A.Safarov tomonidan olib borilayotgan tizimli va chuqur tadqiqotlarni alohida keltirib o'tish zarur. Ushbu olim o'zining "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalanishini soliqlar vositasida rag'batlantirish" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiya ishida tabiiy resurslar bilan investitsion rag'batlantiruvchi imtiyozlarni qo'llashni, noqishloq xo'jalik korxonalaridan olinayotgan yer solig'ini hisoblab chiqish va unidirishda ular foydalanayotgan yerining kadastr qiymatidan undirishni, tabiiy resurs soliqlarini ixchamlashtirilgan soliqqa tortishni joriy qilishni va soliqni hisoblash tartibini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqqan bo'lsa¹¹, "Tabiiy resurs va mol-mulkni soliqlar tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari" nomli monografiyasida esa, tabiiy resurs va mol-mulkni iqtisodiy baholash va ulardan foydalanganlik uchun to'lovlarni joriy etishning nazariy-uslubiy asoslarini ko'rsatib bergan, ko'chmas mulkning bozor qiymatini aniqlash va soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishni, tabiiy resurs va mol-mulkdan samarali foydalanishni soliqlar vositasida rag'batlantirishni takomillashtirish, tabiiy resurs va mol-mulkdan samarali foydalanishni ta'minlashda soliqlarning ta'sirchanligini oshirish yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan¹². Ushbu olimning fikricha, "tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun soliqlariqtisodiy mohiyati va xususiyatlariga ko'ra boshqa soliqlardan farq qilib, renta to'lovi xususiyatiga ega. Ularni joriy etish orqali davlat budjetiga moliyaviy mablag'lar jalb qilish bilan birga, iqtisodiy mexanizm orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga ta'sir ko'rsatiladi"¹³. Biroq, G'.Safarovning tadqiqotlarida mol-mulkni soliqlar tortish masalalariga kamroq e'tibor qaratilgan. Vaholanki, bugun O'zbekiston soliq tizimida mulkiy soliqlarda ularning bozor qiymati va mulklarning tarkibini aniqlash bilan qator muammolar mavjuddir. Bundan tashqari ko'chmas mulklar bo'yicha u yoki bu darajada ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar jumlasiga quyidagilarni: F.Fayziyev¹⁴, O.Meyliyev¹⁵, E.Gadoyev¹⁶, O.Abduraxmonov¹⁷, I.Niyazmetov, S.Voronin, B.Koraboyev¹⁸larni kiritish mumkin.

Tiklanadigan va hayot hamda ishlab chiqarish uchun muhim bo'lgan tabiiy resurs-suv resurslarini soliqlar tortish masalalarida mahalliy olimlardan D.R.Qurbonov, X.M.Bozorov, A.S.Altiyevlarning ilmiy tadqiqotlarni alohida ta'kidlash mumkin. D.R.Qurbonov tadqiqotlarida asosiy masala va muammo sifatida suv resurslaridan tejimli va samarali foydalanishni ta'minlashning ilmiy-nazariy jihatlarini keng tadqiq qilgan, suv resurslarini soliqlar tortishni yuqori qiymatli masalan, alkogol mahsulotlar uchun progressiv tarzda hamda yillik aylanmasi yuqori bo'lgan (1 mlrd. so'mgacha va undan oshgan) tadbirkorlik subyektlariga alohida alohida yondoshish lozimligini ilmiy asoslagan¹⁹.

Tabiiy resurslar bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan X.Bozorov ham o'zi tadqiqotlarida suv resurslar bilan bog'liq bir qator muammolar jumladan, ekin turlari bo'yicha belgilangan suv resurslari iste'molining normativlari amalda yetkazilgan suv hajmiga nomutanosibli doirasidagi muammolarning yechimlari, suv resurslarini adolatli soliqlar tortishda suv o'lhagichlarni tegishli tashkilotlar (suv xo'jaligi) va davlat soliq xizmati organlarida o'zaro hisobga olishni itegratsiyasini ta'minlashga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan²⁰. Iqtisodiyot fanlari doktori, iqtisodchi olim Sherzod Muminov ham suv resurslaridan samarali foydalanishda uni moliyalashtirish masalalari bilan birgalikda soliqlar tortishning ayrim jihatlariga oid ilmiy tavsiyalar ishlab chiqqan²¹.

11 F.A.Safarov. X'jalik yurituvchi subyektlarning tabiiy resurslardan samarali foydalaniшини солиқлар воситасида рағбатлантириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Т.Академия. 2006 й. 26 б.

12 Табиий ресурс ва мол-мулкларни солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш масалалари: Монография / F.A. Сафаров – Т.: "Iqtisod-Moliya", 2022. – 220 б.

13 O'sha manba. 52 b.

14 Файзиёв Ф. Солиқ солиш мақсадида кўчмас мулкни бозор қийматида баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари.// «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020 yil.

15 Мейлиев О. Мол-мулк солиғининг маҳаллий бюджетлар даромадларидаги аҳамиятини ошириш.// Iqtisodiyot va ta'lim / 2022-yil 2-son.

16 Налогообложение ресурсов и имущества: реальность и противоречия. / Гадоев Э., Аношкина В., Рудакова В. и др. // Экономическое обозрение. - 2002. - № 3. - С. 3.

17 Абдурахмонов О. Солиқ сиёсати: дунё тажрибаси ва Ўзбекистон истиқболи. //Бозор, пул ва кредит. - 2002. - №5. - Б. 36.

18 Воронин С., Корабоев Б., Ниязметов И., Угай Д. Международный опыт налогообложения недвижимости // Общество и экономика. – 2021. – Выпуск 2 С. 119-130.

19 Д.Р.Қурбанов Ўзбекистон республикасида сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг молиявий механизмларини такомиллаштириш. И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: 2020. -38 б.

20 Базаров Хуршид Мирзажанович. Табиий бойликлардан самарали фойдаланишда солиқ тизимининг таъсирчанлигини ошириш йўллари. 08.00.07 - молия, пул муомаласи ва кредит ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2022. 29 б.

21 Муминов Ш.Х. Бозор механизмлари асосида сув ҳўжалиги тизимини молиялаштириш методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: 2020. -38 б.



X.M.Bozorov bundan tashqari “ilmiy tadqiqotlarida soliqqa tortish maqsadida tabiiy boyliklarni iqtisodiy jihatdan guruhlash asosida ularning xususiyatlarini ko’rsatib bergan, tabiiy boyliklarni soliqqa tortishning xorij tajribasini qiyosiy jihatdan tahlil qilib, ularning o’ziga xos xususiyatlarini yoritgan. O’zbekistonda suv, yer resurslari va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqlarni undirish mexanizmlarini tahlil qilgan holda ilmiy xulosalarni shakllantirgan. O’zbekiston soliq tizimida tabiiy resurslardan samarali foydalanishda soliq tizimining ta’sirchanligini ta’minlash bilan bog’liq mavjud iqtisodiy muammolarni aniqlagan hamda Respublikamizda amaldagi soliqqa tortish tizimining tabiiy boyliklardan samarali foydalanishga ta’sirchanlik rolini oshirish yuzasidan ilmiy va amaliy takliflarni ishlab chiqqan”²².

XULOSA VA TAKLIFLAR

Resurs soliqlari nazariyasini milliy iqtisodiy sharoitga moslashtirish. O’zbekiston iqtisodiyotining tabiiy resurslarga tayanish xususiyatini hisobga olib, resurs soliqlari bo’yicha milliy konsepsiyani ishlab chiqish. Ekologik soliqlarning nazariy asoslarini mustahkamlash. A. Pigou konsepsiyasi asosida ifloslantiruvchi faoliyatga nisbatan soliq yukini oshirish va ekologik toza texnologiyalarni rag’batlantiruvchi mexanizmlarni yaratish. Ilmiy-tadqiqot salohiyatini kengaytirish. Resurs soliqlari bo’yicha ilmiy maktablar faoliyatini yo’lga qo’yish, xorijiy tajribalarni chuqur o’rganish hamda iqtisodiy modellashtirish usullaridan foydalanish. Resurs soliqlarini tizimlashtirish. Neft, gaz, suv, yer va boshqa resurslarga nisbatan soliq mexanizmlarini yagona metodologik asosda shakllantirish. Soliq siyosatining nazariy va amaliy integratsiyasi. Nazariy ishlanmalarni amaliyot bilan uyg’unlashtirish orqali resurs soliqlarining iqtisodiy va ekologik samaradorligini baholash tizimini yaratish. Mazkur takliflarning amalga oshirilishi O’zbekiston Respublikasida resurs soliqlari siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси-Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
2. F.A.Сафаров. Хўжалик юритувчи субъектларнинг табиий ресурслардан самарали фойдаланишини солиқлар воситасида рағбатлантириш. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Т.Академия. 2006 й. 26 б.
3. Д.Р.Қурбанов Ўзбекистон республикасида сув ресурсларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг молиявий механизмларини такомиллаштириш. И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: 2020. -38 б.
4. З.А.Х.Тошқулов. “Қишлоқ хўжалиги корхоналари иқтисодий фаолиятини солиқлар воситасида рағбатлантириш масалалари”. И.ф.д (DSc)... дис... автореферати. – Т.: 2021. -47 б
5. Kuznetsov, S.A. (1998). Great Dictionary of the Russian language. – St. Petersburg, “Norint”
6. Bodi, Zv., Merton R.K. (2013). Finance. – Moscow, Publishing House “Williams”, 2013. Bolshakov, S.V. (2006). Finance companies. Theory and practice. – Moscow: Book World, 2006. – 617 p.
7. Barulin, S.V. (2010). Finance. – Moscow, KNORUS, 640 p.
8. Zyatkovskyy, I.V. (2000). The financial support of business – Ternopol, Economic thought, 215 p.
9. Sokolska, T.V. (2014). Financial support for agriculture. Economy and management of agribusiness, issue 1, p. 140-146.
10. NasimdjanoV Yunusjon Zoxidovich “Resurslarini soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish” I.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati T.: 2025. -18 б.

22 Базаров Хуршид Мирзажанович. Табиий бойликлардан самарали фойдаланишда солиқ тизимининг таъсирчанлигини ошириш йўллари. 08.00.07 - молия, пул муомаласи ва кредит иxtисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент. 2022. 29 б.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100